XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI....583
**Mirzayev Qulmamat DJonuzoqovich, Mirzayev Azzamjon Jonuzokovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna**

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI....588
**Mirzayev Qulmamat Djonuzoqovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna**

СТРАТЕГИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНА: РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО КАПИТАЛА В ЭПОХУ НООНОМИКИ....593
**Чекулаева Кристина**

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ....599
**Чекулаева Кристина**

YASHIL IQTISODIYOT – MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI....605
**Oybek Hamdamov, Qosimov Jahongir**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALI SIFATINI OSHIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI....608
**M.Ostanova, Ro'ziyev Ramshid**

MODERN LEGAL BASIS FOR THE EFFICIENT USE OF FINANCIAL RESOURCES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN OUR COUNTRY....613
**Ismoilova Gulrux, Khayriddinov Shukhrat Botirovich**

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA TABIIY - IQTISODIY MANBAALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY MEXANIZMI....617
**Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li, Mavlonova Surayyo Xasan qizi**

YANGI O'ZBEKISTONDA SOHALARNI RAQAMLASHTIRISH SAMARADORLIGI....621
**Gulrux Arslon qizi Ismoilova**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

# O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Urozova Shahlo Hasan qizi**
Qarshi davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi
urozovashaxlo5@gmail.com

**Ilmiy rahbar:**
**Rahmonova Tillaoy Malik qizi**
Qarshi davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va uning asosida qulay investitsion muhitni shakllantirish orqali xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlari va uning negizida investitsion muhitni yaxshilash istiqbollari tahlil qilingan. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishi hajmi tahlil qilinib, raqamli iqtisodiyot asosida qulay investitsion muhit yaratishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Zamonaviy iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o‘sish, texnik taraqqiyot va raqobatbardoshlik tamoyillari asosida shakllanishi, balki insonlarning yashash sharoitlarini yaxshilash hamda kelajak avlodlar uchun barqaror iqtisodiy muhit yaratishga yo‘naltirilishi lozim. Iqtisodiyotdagi bunday transformatsiya bugungi kunda “yashil iqtisodiyot” asosidagi barqaror rivojlanish deb nomlanadi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, muqobil energetika, sun’iy intellekt, rivojlanish, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, taraqqiyot, yashil energetika.

Abstract: Currently, enhancing the volume of foreign investments in Uzbekistan's economy through the development of the digital economy and creating a favorable investment climate is one of the most pressing issues. This article analyzes the main directions for developing the digital economy in Uzbekistan and examines prospects for forming an attractive investment climate based on digitalization. Additionally, the article provides an analysis of foreign investment inflows into Uzbekistan’s economy and proposes practical measures aimed at improving the investment environment through digital economic development. Modern economies must be structured not only around economic growth, technological excellence, and competitiveness, but also toward improving living conditions and creating sustainable economic environments for future generations. Such economic transformation is today recognized as sustainable development based on the "green economy."

Key words: green economy, alternative energy, artificial intelligence, development, digitalization, digital economy, sustainable development, green energy.

Аннотация: В настоящее время одной из наиболее актуальных задач в Узбекистане является увеличение объёма иностранных инвестиций путём развития цифровой экономики и формирования благоприятного инвестиционного климата. В статье проведён анализ направлений развития цифровой экономики в Узбекистане и перспектив формирования инвестиционной среды на её основе. Кроме того, изучен объём поступления иностранных инвестиций в экономику страны и разработаны практические рекомендации по созданию благоприятного инвестиционного климата на основе цифровизации экономики. Современная экономика должна формироваться не только на принципах экономического роста, технического совершенствования и конкурентоспособности, но и быть направленной на улучшение условий жизни каждого человека и создание устойчивой экономической среды для будущих поколений. Такая трансформация экономики сегодня обозначается как устойчивое развитие на основе «зелёной экономики».

Ключевые слова: зелёная экономика, альтернативная энергетика, искусственный интеллект, развитие, цифровизация, цифровая экономика, устойчивое развитие, зелёная энергетика.

## KIRISH

Globallashuv jarayonlari, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, raqamli transformatsiya hamda yangi tahdid va xavflarning paydo bo‘lishi sharoitida zamonaviy iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi turli traektoriyalarda kechmoqda. Bu jarayonlar o‘z navbatida oldindan aytib bo‘lmaydigan inqirozli vaziyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi

va iqtisodiy munosabatlarning mutlaqo yangi shakllarini hosil qiladi. Ushbu jarayonda bozor munosabatlarining asosiy ishtirokchilari – davlat, tadbirkorlik sektori hamda uy xo'jaliklari o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur subyektlar o'rtasida yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish alohida o'rin tutadi. Xorijiy tadqiqotchilarning klassik qarashlariga ko'ra, yashil iqtisodiyot barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, aholi farovonligi va turmush sifatini oshirishga ko'maklashadigan iqtisodiy tizim sifatida tavsiflanadi.

Ekologik muvozanatni saqlash, insonning mavjud ekotizimlarga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda ekologik innovatsiyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy qilish orqali iqtisodiy faoliyat va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash zaruriyati tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, hozirgi kunda yashil iqtisodiyot ko'plab mualliflar tomonidan iqtisodiy tizimning ma'lum bir «ideal holati» sifatida ko'rilmoqda. Bu holat esa uning amaliy prinsip va mexanizmlarini real iqtisodiy sharoitlarda amalga oshirish uchun aniq va samarali tavsiyalar ishlab chiqishni qiyinlashtiradi.

Bugungi kunda Respublikada sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyotning barcha sohalariga jadal tatbiq etish va bu yo'nalishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar bilan samarali hamkorlik qilish uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilangan. Shu maqsadda mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini keng qo'llash va rivojlantirish bo'yicha qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilgan holda iqtisodiy va ijtimoiy tarmoqlarga sun'iy intellektni joriy etish hamda ushbu yo'nalishda ilmiy salohiyatni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilandi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4996-son qarori qabul qilingan [1].

## TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish, taqqoslash, iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari hamda sohaga oid mavjud muammolar va ularning yechimlariga qaratilgan izlanishlar metodologik asos sifatida qo'llanilgan. Tadqiqot davomida tahlil natijalari umumlashtirilib, tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda raqamlashtirish O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Shu maqsadda hukumat tomonidan "Raqamli O'zbekiston–2030" dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur dastur birinchi navbatda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash orqali mamlakat aholisining turmush darajasini oshirish hamda iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga qaratilgandir [2].

Raqamli iqtisodiyot texnologiyalari sohasida xorijiy olimlar tomonidan ham ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, rus tadqiqotchisi Stefanova N.A. raqamli iqtisodiyot samaradorligini baholash mumkin bo'lgan asosiy mezonlarni ko'rib chiqib, ularning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta'sirini tadqiq qilgan. Shuningdek, Kox L.V. tomonidan raqamli iqtisodiyotni o'lchash metodikalari hamda raqamlashtirilgan iqtisodiyot faoliyatining ayrim turlarini baholash imkoniyatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

O'zbekistonlik olimlar ham ushbu yo'nalishda o'z ilmiy-tadqiqot ishlarini faol olib bormoqdalar. Xususan, akademik S.S.G'ulomov rahbarligida raqamli iqtisodiyot bo'yicha izohli lug'at hamda bir qator o'quv qo'llanmalari tayyorlangan bo'lib, shu bilan birga sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha ham darsliklar chop etilgan. Mazkur ilmiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyot texnologiyalari va ularni turli sohalarda amaliy qo'llash masalalari batafsil yoritilgan [3].

Ma'lumki, iqtisodiy rivojlanishning barcha bosqichlarida atrof-muhit, tabiat iqtisodiyotning asosiy tarkibiy elementi va muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Tabiat va iqtisodiyotning mukammal darajada muvozanatlashgan o'zaro munosabati "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi orqali ifodalanadi. Yashil iqtisodiyot so'nggi yigirma yil davomida shakllangan iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalish bo'lib, unga ko'ra, iqtisodiyot tabiiy muhitning mustaqil bo'lmagan komponenti hisoblanadi hamda aynan ushbu tabiiy muhit doirasida shakllanib, rivojlanadi [4].

Yashil iqtisodiyotning asosiy vazifasi ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarini ekologik standartlarga moslashtirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlashdir (ecologization) [5]. Yashil iqtisodiyot nazariyasi quyidagi uch aksiomaga asoslanadi:

Chegaralangan tabiiy muhitda iqtisodiy ta'sir va taraqqiyot ko'lamini chegarasiz ravishda kengaytirish va ta'minlash imkonsizdir;

Resurslari chegaralangan sharoitda, doimiy oʻsib boruvchi cheksiz ehtiyojlarni toʻliq qondirish mumkin emas;

Yerdagi barcha tizimlar va hodisalar (jumladan, tabiiy va iqtisodiy muhitlar) bir-biri bilan chambarchas bogʻliqdir.

Yashil iqtisodiyot nazariyasining bugungi kunda keng tarqalishining asosiy sababi mavjud ekologik muammolarning global ahamiyat kasb etayotgani hamda yashil iqtisodiyot doirasida taklif etilayotgan tovar va xizmatlarning aholining ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilganidadir. UNEP (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi) tomonidan eʼlon qilingan yashil iqtisodiyotga oid maʼruzada, jahon YAIM hajmining 2 foizini iqtisodiyotni ekologik jihatdan barqaror qilishga yoʻnaltirish orqali 2011–2050-yillar oraligʻida iqtisodiy oʻsishni uzoq muddat davom ettirish mumkinligi taʼkidlangan. Eng muhimi, bu orqali ayni vaqtda iqlim oʻzgarishi, suv tanqisligi bilan bogʻliq ekologik muammolarni qisman hal qilish hamda ekotizimlarning yoʻq boʻlib ketishining oldini olishga imkoniyat tugʻiladi [6].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni qoʻllashning quyidagi ijobiy tomonlari mavjud:

ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati yaratiladi;

yangi ekologik (yashil) ish oʻrinlarini yaratish bilan bir qatorda, frilans yoʻnalishi rivojlanadi;

kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirish hamda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga zamin yaratiladi;

qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish uchun qulay sharoit shakllantiriladi.

Shunday qilib, yashil iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalarni qoʻllash barqaror rivojlanish yoʻlida innovatsion texnologiyalarni yaratish va keng qoʻllashga olib keladi. XXI asr boshida Birlashgan Millatlar Tashkiloti insoniyat taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlari sifatida oʻzaro bogʻliq boʻlgan 17 ta global maqsadni ilgari surdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit boʻyicha dasturi (UNEP) tomonidan qoʻllab-quvvatlangan Oksford universitetining Global tiklanish observatoriyasi oʻtkazgan tadqiqot natijalariga koʻra, iqtisodiyotni qayta tiklash uchun umumiy xarajatlarning 20 foizdan kamrogʻi atrof-muhit muammolarini bartaraf etishga yoʻnaltirilmoqda.

Yashil iqtisodiyotga oʻtish jarayonida barqaror rivojlanishni taʼminlashning asosiy omili sifatida zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va uni modernizatsiya qilish alohida ahamiyatga ega boʻlib, bu tarkibiy islohotlarning muhim yoʻnalishi hisoblanadi. Infratuzilma tarmoqlariga suv infratuzilmasi (shu jumladan, toʻgʻon va suv omborlari), yerlarni rivojlantirish va rejalashtirish, uy-joy va shaharsozlik, qirgʻoqboʻyi hududlarini suv toshqinlaridan himoya qilish tizimlari, yoʻl-transport infratuzilmasi (shu jumladan, portlar, koʻpriklar va avtomobil yoʻllari), energetika (shu jumladan, atom elektr stansiyalari) va boshqa bir qator sohalar kiradi. Ushbu infratuzilma tarmoqlari uzoq xizmat muddatiga ega boʻlgan ishlab chiqarish aktivlari (20 yildan 200 yilgacha boʻlgan xizmat muddatlari) bilan tavsiflanadi. Shu sababli, ularga kiritiladigan investitsiyalar uzoq muddatli boʻlib, mazkur tarmoqlarning ekologik jihatdan modernizatsiya qilinishi muhim iqtisodiy va ekologik ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, infratuzilma tarmoqlari miqyos samaradorligi (economies of scale), tarmoq effekti (network effect) hamda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlar oʻrtasidagi sinergiya bilan xarakterlanadi, bu esa mazkur yoʻnalishdagi investitsiyalar samaradorligini yanada oshirish imkoniyatini beradi [7].

Oʻzbekiston yashil iqtisodiyot uchun noyob imkoniyatlar va shart-sharoitlarga ega. Keng hudud, qulay geosiyosiy joylashuv, mavjud moliyaviy va tabiiy resurslar, bozorda samarali foydalanish mumkin boʻlgan yashil texnologiyalar taklifining oʻsib borishi kabi omillar yangi imkoniyatlarni qoʻllab-quvvatlamoqda. Iqtisodiyotning yashil rivojlanish tamoyillarini qoʻllash nuqtai nazaridan islohot talab qiladigan eng muhim segmentlar chiqindilarni boshqarish sektori, energetika sohasi va suv isteʼmoli tarmogʻidir [8]. “RIO+20” sammitidan soʻng Oʻzbekiston jamiyati oʻz kuchlarini yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasini amalga oshirishga yoʻnaltirdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan yashil iqtisodiyotga oʻtish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiyada iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini isloh qilishga qaratilgan ustuvor vazifalar roʻyxati keltirilgan. Mamlakat oldida turgan yashil iqtisodiyotga oʻtish boʻyicha asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: resurslardan (suv, yer, biologik va boshqa resurslardan) foydalanish va ularni boshqarish samaradorligini oshirish; mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish va yangilarini barpo etish; ekologik bosimni yumshatishning tejamkor usullari orqali aholi farovonligi va atrof-muhit sifatini yaxshilash; milliy xavfsizlikni, shu jumladan suv xavfsizligini taʼminlash.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda Oʻzbekiston oʻzining rivojlanish modeli boʻyicha oʻsish chegaralarini yengib oʻtish hamda iqlim va ekologiyadan xabardor boʻlib borayotgan jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash yoʻlidagi noyob imkoniyatni yaxshi anglab yetmoqda. Mamlakat tarkibiy islohotlarni jadallashtirish orqali oʻz iqtisodiyoti, aholisi va sayyoramiz uchun rivojlanayotgan sohalarda yangi ish oʻrinlarini yaratish bilan birga, tabiiy

resurslardan moslashuvchan, inklyuziv, barqaror va samarali (MIBS) foydalanishga asoslangan past uglerodli va iqlimga chidamli yashil o'sish modeli sari dadil qadam tashlamoqda. Ammo yanada barqaror va yashil iqtisodiyotga aylanish uchun mamlakat mavjud ekologik muammolar va iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradigan boshqa xavf omillari ustida ishlashi kerak.

O'zbekistonda barqaror rivojlanishni ta'minlashda yashil iqtisodiyotning rolini kuchaytirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur:

Birinchidan, aholini atrof-muhitning yomonlashuvi sabablari to'g'risidagi axborot bilan ta'minlashga qaratilgan loyihalarga ustuvor ahamiyat berish lozim.

Ikkinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi sifatini oshirish darkor.

Uchinchidan, "yashil" davlat xaridlari siyosatini olib borish orqali ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va bu jarayonda yashil texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'rtinchidan, milliy iqtisodiyotning energiya salohiyatini oshirishda yashil texnologiyalardan samarali foydalanish kerak.

Va nihoyat beshinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida yashil infratuzilmani shakllantirish uchun ajratiladigan davlat investitsiyalari hajmini oshirish lozim.

Barqaror rivojlanish jamiyat hayotini tashkil etishning yangi modeli bo'lib, unga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida yashil iqtisodiyotga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali erishish mumkin.

Aytish mumkinki, sun'iy intellekt – bu turli muammolarni hal qilish uchun an'anaviy aqlli modellar va usullarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan tadqiqot sohasidir. Unda maxsus dasturlash texnologiyalari va o'ziga xos arxitekturaga ega bo'lgan hisoblash vositalaridan foydalaniladi. Sun'iy intellekt asosidagi raqamli texnologiyalar tabiat resurslarini boshqarishda o'ziga xos imkoniyatlarni taqdim etadi. Jumladan, sug'orish ishlarida suvni boshqarish tizimlarini takomillashtirish, suv iste'molini hisobga olish va nazorat qilish uchun «Smart Water» hamda boshqa raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan innovatsion sug'orish texnologiyalarini keng qo'llash, ushbu yo'nalishga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish, shuningdek, suv xo'jaligida davlat-xususiy sheriklik va autsorsing mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, yirik suv ob'ektlarini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga o'tkazish hamda elektr energiyasi va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni kengroq joriy etish talab qilinadi.

Yashil iqtisodiyot mavjud resurslardan tejamkorlik bilan foydalangan holda ekologik jihatdan zararsiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan iqtisodiy tizimdir. Bugungi kunda yashil iqtisodiyot nazariyasining jahon miqyosida keng yoyilishining asosiy sababi mavjud ekologik muammolarning global ahamiyat kasb etayotgani, shuningdek, ushbu iqtisodiyot tomonidan taklif qilinayotgan tovar va xizmatlarning inson ehtiyojlarini qondirish bilan birga ekologik muammolarni ham samarali bartaraf etishga xizmat qilishidadir.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni keng joriy qilish mamlakat tabiiy resurslaridan yanada oqilona foydalanish, mavjud ekologik muammolarni hal qilish, aholining ekologik savodxonligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning mazkur yo'nalishini shakllantirish va rivojlantirish uchun yurtimizda barcha imkoniyatlar va zarur sharoitlar mavjuddir. Bu yo'nalishda esa quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim:O'zbekistonning yashil iqtisodiyot modelini (strategik dasturini) tuzish va amaliyotga keng joriy etish;

Ushbu jarayonning huquqiy-normativ bazasini shakllantirish;

Islohotlarni izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirish;

Iqtisodiyot tarmoqlarini, infratuzilmani modernizatsiya qilish, ularni yashillashtirishga ichki va tashqi investitsiyalarni keng jalb etish;

Aholining eko-madaniyatini oshirish;

Davlat va jamiyat manfaatlarini mushtarakligini inobatga olgan holda, ushbu sohani rivojlantirishda ularninig o'zaro hamkorligi ta'minlash;

Yashil iqtisodiyotni shakllantirish borasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabilarni kiritish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17- fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish choratadbirlari to'g'risida" PQ–4996-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-436 son qarori.
3. S.S.Gulyamov – i.f.d., O'zR FA akademigi, M.X.Muxiddinova – PhD, O.U.Turgunov – tayanch doktorant Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti.
4. Бобылев С.Н., Захаров В.М. Модернизация экономики и устойчивое развитие. М: Экономика, 2011, стр.14

5. Данилов-Данильян В.И., Лосев К.С. Экологический вызов и устойчивое развитие. М.: Прогресс-традиция, 2000. стр.97-98
6. www.unep.com
7. Meyliev, O. R. (2017). Nalogovye faktory ekonomycheskogo razvitiya regionov. Ekonomi va biznes: nazariya i amaliyot, (5), 161-163.
8. Navstrechu «zelyonoy» ekonomike: puti k ustaychivomu razvitiyyu i iskoreneniyu bednosti / Shtayner A., Ayris R., Bessa S. Va boshqalar: YUNEP/ GridArendal, 2011.
9. Xudoyberdiyeva, O. O. (2024). monopol sharoitda narx belgilash va monopol hokimiyat ko ‘rsatkichlarini pasaytirish. boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali, 5(1), 6-8.
10. Джумаева Г. Ж., Яхшикулова М. Т. (2023). анализ проблем организации внутреннего аудита в акционерных компаниях. Образовательные исследования в области универсальных наук, 2(3), 764-769.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

## 2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz